**2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yuklatilgan topshiriqlar**
**DASTURI IJROSI**

***26.09.2023-yil holatiga***

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari | Mas’ul vazirlik va idoralar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga asosiy ijrochi sifatida yuklatilgan topshiriqlar** | | | | | | | |
| **37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.** | | | | | | | |
| **1 (151)** | **Nodavlat ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish**, sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish. | **1.** Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda ularning **elektron kutubxonasi, axborot-resurs markazlari**, o‘qituvchilarning toifalari, bitta sinfda ta’lim **oluvchilarning maksimal soniga qo‘yilgan talablar**ni yengillashtirish.<br>**2.** Nodavlat ta’lim tashkilotlariga **sport zal va talabalar dam olish joylarini ularga ijara va bepul foydalanish huquqi** asosida tegishli bo‘lgan binolarda ham tashkil etishga ruxsat etish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil noyabr | – | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarildi.**<br>“Nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash jarayonlarini soddalshtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi vazirlik va idoralar bilan belgilangan tartibda kelishilib **2023-yil 20-sentabr 01-01/8-022-sonli xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.**<br>Qaror loyihasida nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda o‘qituvchilarning toifalari hamda bitta sinfda ta’lim oluvchilarning maksimal soniga qo‘yilgan talablarni yengillashtirish;<br>nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga sport zal va o‘quvchilarning dam olish joylarini ularga ijara va bepul foydalanish huquqi asosida tegishli |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | bo'lgan hamda belgilangan talablarga javob beradigan binolarda ham tashkil etishga ruxsat etish;<br>boshlang'ich sinflarda o'qitishni rejalashtirgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun alohida litsenziya talablari va shartlarini belgilash masalalariga e'tibor qaratilgan. |
| **38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.** | | | | | | | |
| **2 (152)** | **6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni** ta'minlash bo'yicha **maqsadli ko'rsatkichlarga** erishish ishlarini davom ettirish. | Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish orqali qamrab olish darajasini oshirish.<br>Bunda:<br>**269 ta** qisqa muddatli tayyorlov guruhlari;<br>**94 ta** to'liq kunlik tayyorlov guruhlari;<br>**1 384 ta** majburiy bepul tayyorlov guruhlari;<br>maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil yakuniga qadar | **60 mlrd so'm** Respublika byudjeti mablag'lari | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarilmoqda.**<br>Shu kunga qadar yangi tashkil etilgan 61 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 36 ta to'liq kunlik tayyorlov guruhlari, **9 ta** davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 9 ta to'liq kunlik tayyorlov guruhlari tashkil etilib, hamda **3 210 ta** qisqa muddatli tayyorlov guruhlari tashkil etildi.<br>Shu bilan birga, bugungi kunda respublikamizdagi 647 655 nafar 6 yoshli bolalar (90 foiz) maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olingan. Shundan:<br>186 881 nafari (7 499 ta guruh) majburiy bepul bir yillik boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlariga;<br>380 544 nafari (10 256 ta guruh) to'liq kunlik tayyorlov guruhlariga;<br>80 230 nafari (3 210 ta guruh) qisqa muddatli tayyorlov guruhlariga qamrab olindi. |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | 2023/2024-o‘quv yili davomida jami **7 560 ta** boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlov guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, **200 332 nafar** 6 yoshli bolalarni qamrab olish orqali 2023-yil yakunida **93 foiz**ga, 2023/2024-o‘quv yili yakunida **95 foiz**ga yetkazilish rejalashtirilgan. |
| **3 (153)** | Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish. | **1.** Yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni ko‘p kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda jihozlash orqali amalga oshirishga ruxsat etish.<br>**2.** Davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherikka ushbu binoni **bank kreditlari bo‘yicha garovga qo‘yishga oid cheklovlarni bekor qilish.** | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil aprel | – | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova,** Adliya vazirligi **A.Tashkulov,** manfaatdor vazirlik va idoralar | **Bajarildi.**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ilovasining 153-bandida berilgan topshiriq ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni qabul qilindi.<br>Mazkur Farmon ilovasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 25-apreldagi PQ-3651-son qaroriga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **3. 1 600 ta** oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish hisobiga **40 mingdan ortiq** bolalar oʻrnini yaratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil yakuniga qadar | **185 mlrd. soʻm** Respublika byudjeti mablagʻlari | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarildi.** Bugungi kunda umumiy quvvati **121 500 oʻrin**ga moʻljallangan **3 473 ta** oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish boʻyicha bitim imzolandi. |
| **39-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.** | | | | | | | |
| **4 (154)** | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda oʻquv dasturlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlari samaradorligini oshirish. | **1.** Xalqaro loyihalar doirasida xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining **4 ming**dan ziyod xodimlarini (40 soatga moʻljallangan) qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida oʻqitish.<br>**2.** Takomillashtirilgan **"Ilk qadam"** davlat oʻquv dasturini amaliyotga keng joriy etish.<br>**3.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini **25 nomdagi** oʻquv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash.<br>**4.** Ota-onalar uchun bolalar tarbiyasi va ta'limiga oid Internet resurslarini yaratish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | **800 ming dollar** Jahon Banki mablagʻlari, byudjeti mablagʻlari parametrlari da koʻzda tutilgan mablagʻlar doirasida | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev,** Raqamli texnologiyalar vazirligi **Sh.Shermatov** | **Bajarilmoqda.**<br>1. Qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini tayyorlashni rejalashtirish va muvofiqlashtirish boʻyicha Jahon banki, PIU, UNICEF, Maktabgacha ta'lim agentligi boshqarmalari hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti vakillaridan iborat ishchi guruh tashkil etildi.<br>Shu bilan birga, oʻquv dasturini ishlab chiqish va tegishli muvofiqlashtirish ishlarini olib borish uchun konsultantlarni tanlash boʻyicha texnik topshiriqlar shuningdek, nomzodlarni tanlash va trenerlarni tayyorlash boʻyicha me'yorlar ishlab chiqildi.<br>Hozirgi kunda xalqaro konsultantlar ishtirokida pedagog xodimlarini 40 soatga moʻljallangan qisqa muddatli malaka oshirish kursning oʻquv dasturi ishlab chiqildi.<br>Qisqa muddatli oʻquv kurslari quyidagi 3 bosqichda tashkil etildi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Joriy yilning 7-11-avgust kunlari qisqa muddatli oʻquv kursining 1-bosqihi doirasida Kler Nandu hamda Jahon bankining taʼlim boʻyicha maslahatchisi Sherrily Le Mottilar tomonidan 30 nafar trenerlar oqitildi.<br>**2.** Bugungi kunda barcha maktabgacha taʼlim tashkilotlariga takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi yetkazib berilgan. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida agentlik xodimlari tomonidan seminar-treninglar oʻtkazildi.<br>Shuningdek, takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturining elektron shakli bolakadem.uz ochiq elektron platformasi va Maktabgacha taʼlim agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.<br>Oʻzbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari va takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat oʻquv dasturini joriy etish boʻyicha Trenerlar uchun qoʻllanma ishlab chiqildi va YUNISEF xalqaro konsultantlariga ekspertiza uchun yuborildi.<br>**3.** 2023-2024 oʻquv yiliga qadar Davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari, majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlari, Maktabgacha taʼlim agentligi tasarrufidagi Pedagogika kollejlari, xududiy MMT boshqarmalari, mobil |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | maktabgacha ta’lim guruhlari hamda malaka oshirish institutiga 32 turdagi o‘yin va o‘yinchoqlar, 36 turdagi rivojlantiruvchi o‘quv didaktik materiallar yetkazilishi rejalashtirilgan.<br>Bugungi kunda shakllangan extiyoj asosida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi tomonidan mazkur didaktik materiallar, o‘yin va o‘yinchoqlarni yetkazib berish choralari ko‘rilmoqda..<br>**4. “bolakadem.uz”** ochiq elektron platformasining ota-onalar uchun sahifasida tegishli ma’lumotlar doimiy ravishda joylashtirib borilmoqda. |
| **5 (155)** | Erta yoshdagi bolalar ta’limi sifati va natijalarini baholash bo‘yicha xalqaro MELQO *(measuring early learning quality outcomes)* baholash tizimi asosida **“Bolalarni erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta’lim sifatini baholashning milliy tizimi”**ni joriy etish. | **1.** Xalqaro **MELQO** ta’lim sifatini baholash vositalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilish.<br>**2.** MELQO standartlariga muvofiq maktabgacha ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish.<br>**3. Milliy baholash tizimi**ni tajriba-sinovdan o‘tkazish.<br>**4.** Tajriba-sinov natijalari asosida milliy baholash tizimini keng qamrovda joriy etish choralarini ko‘rish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Jahon bankining “Erta bolalikdagi rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida **250 ming dollar** | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | **Bajarilmoqda.**<br>MELQO ta’lim sifatini baholash vositalari milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda adaptatsiya qilindi.<br>MELQO vositasini tajriba-sinovdan o‘tkazish va to‘plangan ma’lumotlarni jamlash va qayta ishlash maqsadida konsalting kompaniyasi tanlab olindi.<br>MELQO standartlariga muvofiq maktabgacha ta’lim sifatini baholash vositalari raqamlashtirildi.<br>Vositalar o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilindi.<br>Ekspertlar ro‘yxati shakllantirilib, joriy yilning 25-26-iyul kunlari ular uchun o‘quv seminari tashkil etildi.<br>MELQO xalqaro vositalarini tajriba sinovdan o‘tkazish uchun |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi 12 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari tanlab olindi va Jahon banki, konsalting kompaniyasi bilan birgalikda iyul-avgust oylarida vositalarning dastlabki sinovlari o‘tkazildi.<br>O‘tkazilgan sinovlarda MELQO xalqaro vositalarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xalqaro maslaxatchiga va konsalting kompaniyasiga asoslangan takliflar kiritildi.<br>Joriy yilning 15-sentabr kuni Maktabgacha ta’lim agentligi hamda Jahon banki vakillari ishtirokida erta yoshdagi bolalar ta’lim sifati va natijalarini baholash bo‘yicha xalqaro MELQO (measuring early learning quality outcomes) baholash tizimi asosida joriy etilgan “Bolalarni erta yoshdan rivojlanishi va maktabgacha ta’lim sifatini baholash tizimi” orqali ta’lim sifatini baholash maqsadida respublikaning 100 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tanlab olindi va ro‘yxati tasdiqlandi.<br>25-29-sentabr kunlari baholash tizimi asosida ma’lumotlarni jamlash va ularni tahlil qilish bo‘ycha trenerlarni tayyorlashga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etildi. Unda agentlik mas’ul xodimlari, xalqaro maslaxatchi, konsalting kompaniyasi hamda ekspertlar guruhi ishtirok etishdi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Oktabar oyida tanlab olingan 100 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini baholash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. |
| **40-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash** | | | | | | | |
| **6 (156)** | **Maktabgacha ta’lim tizimi**da noqonuniy moliyaviy xatti-harakatlar, **korrupsiya holatlari va byudjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi**ni oldini olish. | **1. 6 412 ta** davlat maktab-gacha ta’lim tashkilotlarida avtomatlashtirilgan tizimni ishga tushirish uchun texnik vositalarni xarid qilish.<br>**2. “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi”**ni ishga tushirish.<br>**3.** Xodimlar va tarbiya-lanuvchilarning davomati hamda bolalarni ovqatlantirish bilan bog‘liq xarajatlarni elektron hisoblanishini yo‘lga qo‘yish.<br>**4. “Yagona mavsumiy taom-noma”**ni joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentabr | Respublika byudjetidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **A.Shin,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev,** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi **A.Burxanov** | **1. Bajarildi.**<br>Elektron tizimni ishga tushirish uchun Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 2,8 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilib, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun planshet va routerlarni xarid qilindi.<br>**2. Bajarildi.**<br>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi ishlab chiqilib, MTTlarda ishga tushirildi.<br>**3. Bajarildi.**<br>Mazkur tizim orqali xodimlar va tarbiyalanuvchilarning davomati hamda bolalarni ovqatlantirish bilan bog‘liq xarajatlarni elektron hisoblanishini yo‘lga qo‘yildi.<br>**4. Bajarildi.**<br>2023-yil 4-sentabrdan boshlab “Aqlvoy-oshpaz, bog‘chalar uchun taomlar retsepti” to‘plamidan foydalangan holda ishlab chiqilgan Yagona mavsumiy taomnoma Davlat MTTlarda joriy etildi. |
| **41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish** | | | | | | | |
| **7 (157)** | Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish. | **1. “Namunaviy maktab”** loyihalari asosida **237 ta** maktablarni rekonstruksiya qilish va yangidan barpo etish orqali **76 ming** o‘quvchi o‘rnini yaratish.<br>**2.** Maktablarni to‘liq | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Davlat byudjeti mablag‘lari (**1,7 trln so‘m**), mahalliy byudjet | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, | **Bajarilmoqda.**<br>**1.** Joriy yilgi investitsiya va qo‘shimcha dasturlar doirasida **jami 338 ta** umumta’lim maktablarida *(shundan, 24 ta yangi qurish, 237 ta rekonstruksiya qilish, 77 ta mukammal ta’mirlash hamda* |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **zamonaviy mebel, uskunalar** bilan jihozlash. | | | mablag'lari, homiylar mablag'lari, tadbirkorlar mablag'lari, xorijiy bank kreditlari | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, **B.Zakirov,** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova** | *jihozlash)* qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirilishi belgilangan.<br>Buning natijasida, **89 343 ta** yangi o'quvchi o'rinlari yaratiladi, mavjud **63 880 ta** o'quvchi o'rinlari mukammal ta'mirlanadi va jihozlanadi, shuningdek, **46 dona** sport zali binolari quriladi.<br>Bugungi kunda qurilish-ta'mirlash ishlari 83 foizga bajarilgan bo'lsa, 72 foiz mablag'lar moliyashtirilgan.<br>Mazkur ob'ektlardan **236 ta**sida qurilish ishlari yakuniga yetkazilgan bo'lsa, **27 ta**si oktyabr oyida qurilish ishlari tugatilishi ko'zda tutilmoqda.<br>**2.** Bugungi kunda jihozlash bo'yicha imzolangan shartnomalarga asosan **20,3 mlrd. so'mlik** jihozlar **63 ta** umumta'lim maktablariga yetkazib berilgan. |
| | | **3.** Umumta'lim maktablaridagi **1200 ta** ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Respublika byudjeti **100 mlrd. so'm,** mahalliy byudjet **100 mlrd. so'm** | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarildi.**<br>Umumta'lim maktablaridagi **557 ta** ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash maqsadida kompyuter sinflarini xarid qilish bo'yicha Texnik topshiriq ishlab chiqilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" Davlat unitar korxonasining xulosasi olindi.<br>Tegishli xarid ishlarini amalga oshirish bo'yicha "Ta'minot va logistika xizmati" DUK tomonidan tender savdolari o'tkazilib, tender g'oliblari e'lon qilindi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Hozirda mazkur kompyuterlar hududlarga to‘liq (100%) yetkazib berildi. |
| | | **4.** Respublikadagi **4 860 ta** *(shundan 2509 ta o‘g‘il va 2351 tasi qiz bolalar xonasi)* umumta’lim maktablaridagi texnologiya xonalarini jihozlash. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Mahalliy byudjet mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | **Bajarilmoqda.**<br>Vazirlik tomonidan respublikadagi **4 860 ta** (shundan 2509 ta o‘g‘il va 2351 ta qiz bolalar xonasi) umumta’lim maktablarining texnologiya xonalarini mahalliy budjet hisobidan jihozlanganligi o‘rganib chiqilganda, hududlar tomonidan yil yakuniga qadar jihozlash rejalashtirilganligi ma’lum qilingan. |
| | | **5.** Nodavlat ta’lim muassasalari sonini **400 taga** yetkazish. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil yakuniga qadar | Tadbirkorlar mablag‘lari, xorijiy bank kreditlari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | **Bajarildi.**<br>Xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarni ochish tartibi haqidagi bir qator savollarga javob berish maqsadida vazirlik masullari bilan intervyular tashkil etildi hamda ijtimoiy tarmoqlar va vazirlik veb-sahifasida keng jamoatchilikka yetkazildi.<br>“Litsenziya” axborot tizimi (license.gov.uz) orqali joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida litsenziya talabgorlaridan kelib tushgan arizalar o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilib, 212 ta litsenziya rasmiylashtirildi. Shundan, 63 ta nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga litsenziya berilib, jami **425 ta** Nodavlat ta’lim muassasalari **ochishiga erishildi.**<br>Joriy yilning iyul oyi davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlar |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | hamda fuqarolar uchun seminar-treninglar tashkil etilib, yig‘ilganlarga qonunchilikdagi yangiliklar, imkoniyat va imtiyozlar bo‘yicha batafsil ma’lumot berildi. |
| **2-maqsad: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish** | | | | | | | |
| **8 (158)** | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini amaliyotga kiritish. | **1.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1–4-sinflarida o‘quvchilarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish.<br>**2.** 5–9-sinflarda o‘quvchilarga umumta’lim fanlaridan tayanch bilimlar berish.<br>**3.** 10–11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentabr-dan boshlab bosqichma-bosqich | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lari hisobidan | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **1. Bajarildi.**<br>Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-4-sinflarida o‘quvchilarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.<br>“NOVDA edutainment” nashriyoti tomonidan 4K modeli (kommunikativ, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari) asosida yaratilgan boshlang‘ich sinf darsliklari **“Education Alliance Finland”** (Finlyandiya) xorijiy kompaniyasi (ekspertlari) tomonidan **ekspertizadan o‘tkazilib, sertifikatlandi.**<br>Mazkur 775 nomdagi darslik majmualar 36,4 mln. nusxada chop etilib, joylarga yetkazildi.<br>Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida 1-sinf o‘quvchilari uchun yangidan “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etilib, ushbu fanni o‘qitish uchun haftasiga 1 soat dars ajratildi.<br>Shuningdek, 200 ming nusxa 1-4-sinf qardosh tillar bo‘yicha ona tili fani darsliklari chop etildi va joylarga yetkazildi.<br>**2. Bajarildi.**<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-maydagi |
| | | **4.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentabr | Xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari | | |
| | | **5.** Fransiyaning **“Didyer” nashriyoti**ning fransuz tili fani darsligini xarid qilish.<br>“Kembridj” nashriyotining Informatika darsligini barcha ta’lim tillari uchun litsenzion huquqini xarid qilish, tarjima qilish va chop etish. | | 2023-yil yakuniga qadar | | | |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | 125-sonli buyrugʻi bilan umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun 2023-2024-oʻquv yiliga moʻljallangan tayanch oʻquv rejasi tasdiqlandi.<br>Mazkur buyruqqa muvofiq 2023-2024-oʻquv yilidan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-9-sinflarida oʻquvchilarga **17 ta** umumtaʼlim fanlaridan haftalik **154 soat** hajmda tayanch bilimlarni berish belgilangan.<br>**3. Bajarildi**.<br>Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirining 2023-yil 15-maydagi 125-sonli buyrugʻi bilan umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun 2023-2024-oʻquv yiliga moʻljallangan tayanch oʻquv rejasi tasdiqlandi.<br>Mazkur buyruqqa muvofiq 2023-2024-oʻquv yilidan umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-9-sinflarida oʻquvchilarga **17 ta** umumtaʼlim fanlaridan haftalik **154 soat** hajmda tayanch bilimlarni berish belgilangan.<br>10-11-sinf oʻquvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos boʻlgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish;<br>yuqori sinf oʻquvchilarini fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish hamda ularni oliy oʻquv yurtlariga yoʻnaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2023-yil 27-iyundagi “Umumtaʼlim maktablarida yuqori sinf |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | o'quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishni tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida" 192-sonli buyrug'i qabul qilindi.<br>Mazkur buyruq bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida<br>(10-11-sinf) 4 ta yo'nalish (matematika-fizika, ona tili-chet tili, kimyo-biologiya, matematika-chet tili) bo'yicha tanlov fanlari belgilab berildi hamda tajriba-sinovdan o'tkazish tartibi, o'quv rejalari, tushuntirish xati, tajriba-sinovdan o'tkaziladigan maktablar ro'yxati tasdiqlandi.<br>**Ma'lumot uchun**: 4 ta yo'nalish bo'yicha tanlov fanlari 124 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarining 129 ta sinflarida joriy etiladi. Shundan matematika-fizika 14 ta, kimyo-biologiya 31 ta, ona tili-chet tili 36 ta, matematika-chet tili 48 ta.<br>Belgilangan tayanch o'quv rejaga muvofiq, 4 ta yo'nalish bo'yicha 11 ta majburiy (ona tili va adabiyot, rus tili, chet tili, tarix, tarbiya, matematika, fizika, kimyo, biologiya, jismoniy tarbiya, CHQBT) va 2 ta tanlov fanlarini o'qitish belgilandi.<br>Shuningdek, tajriba-sinov maktablaridagi yo'nalishlar o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi.<br>Shu bilan birga, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarining o'quv dasturlari tahlil qilinib, tanlov fanlari uchun moslashtirildi. Respublika ta'lim markazi tomonidan |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | tanlov fanlarining taqvim mavzu rejalari, o‘quv maqsadlar ishlab chiqildi.<br>**4.Bajarildi.**<br>Xalqaro taraqqiyot agentligi USAID ko‘magida yaratilgan o‘quv-metodik majmualar Namangan va Sirdaryo viloyatidagi 919 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida **tajriba-sinovdan o‘tkazildi**. Shuningdek, “NOVDA edutainment” nashriyoti tomonidan 4 K modeli (kommunikativ, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari) asosida yaratilgan boshlang‘ich sinf darsliklari “Education Alliance Finland” (Finlyandiya) xorijiy kompaniyasi (ekspertlari) tomonidan ekspertizadan o‘tkazilib, sertifikatlandi.<br>Bundan tashqari, Kembrij nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan<br>7-sinf fizika, 8-sinf biologiya fani darslik majmualari mahalliylashtirildi (Kembrij nashriyoti ekspertlari James Ord, Lauren Haslam-Smith va boshqalar xulosalari asosida takomillashtirildi).<br>**5. Bajarilmoqda**.<br>Fransiyaning Hachette Livre Group guruhining fransuz tili (“Passe-Passe”, “Décibel” va “L’atelier”) darsliklarini xarid qilish va amaliyotga joriy qilish bo‘yicha shartnoma imzolandi.<br>Ushbu shartnomaga muvofiq: O‘zbekistondagi fransuz tili o‘qitiladigan maktablar Fransiyaning Didier FLE |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | nashriyotining o‘quv-metodik majmualaridan foydalanishi;<br>Imzolangan shartnomaga muvofiq darsliklar O‘zbekistonga moslashtirildi, joriy yilning avgust-sentabr oylarida 325 ming nusxada darslik va mashq daftarlari chop etildi (https://didierfle-ozbekiston.com/).<br>Kembridj nashriyotining 5-11-sinflar uchun informatika va axborot texnologiyalari darsliklarini 6 ta tilga tarjima qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.<br>3 mln. nusxa Kembridj nashriyotining 5-9-sinf informatika va axborot texnologiyalari fani darsliklarini chop etish bo‘yicha shartnomalar imzolangan.<br>Shartnomaga muvofiq, ayni damda Inforamtika va axborot texnologiyalari fani darslik va o‘qituvchi kitoblari rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillariga tarjima qilinib, nashrga tayyorlanmoqda.<br>Darslik majmualarini tarjima qilish va nashr uchun maketlarini tayyorlash “O‘zbekiston Barkamollik uchun ta’lim dasturi” doirasida USAID va RTI International tashkiloti orqali moliyalashtirilmoqda. |
| **44-maqsad: Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.** | | | | | | | |
| **9 (160)** | **Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar** uchun qulay sharoitlar yaratish. | **1.** Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun **inklyuziv ta’lim** tizimini bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil sentabr | Ijrochilar mablag‘lari hisobiga | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | **1. Bajarildi.**<br>Inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar tashkil etiladigan umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus o‘qituvchilari |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Bunda, ommaviy axborot vositalari orqali inklyuziv ta’lim tizimining ijobiy tomonlarini ota-onalarga keng targ‘ib qilish.<br>**2.** Har bir tuman (shahar)da kamida bittadan inklyuziv maktablar tashkil etish.<br>**3.** Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan (eshitishda nuqsoni bo‘lgan) **1-sinf o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish** va ularni eshitish moslama-larini taqdim etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | | Sog‘liqni saqlash vazirligi **A.Inoyatov,** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | va amaliyotchi psixologlari uchun **7-21-avgust** kunlari Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida **2023-2024-o‘quv yili**da nklyuziv ta’lim joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining direktorlari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va psixologlari uchun **72 soatga** mo‘ljallangan **maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etildi**. Kurs davomida **1431 nafar** pedagoglarning malakasi oshirildi.<br>Inklyuziv ta’limning ahamiyatini aholi orasida **keng targ‘ib qilish** maqsadida **2023 yilning** o‘tgan davri davomida ushbu faoliyat:<br>**9 marta** markaziy telekanallarda;<br>**17 marta h**ududiy telekanallarda;<br>**7 marta** radioda;<br>**5 marta** bosma matbuotda yoritildi.<br>Shuningdek, **“Inklyuziv ta’lim amalda”** rasmiy telegram kanali (https://t.me/inklyuziya) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu kanalda inklyuziv maktablarning faoliyati, ulardagi o‘quvchilar olib borilayotgan dars jarayonlari hamda yo‘nalishga oid yangiliklar ijtimoiy tarmoqlarda doimiy (har kuni) keng yoritib kelinmoqda.<br>**2. Bajarildi.**<br>2022/2023-o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablari soni **195 taga** yetib ularda **504 nafar** imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga qamrab olindi.<br>Tashkil etilgan inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | o‘quvchilarga 2021/22-o‘quv yilida **51 nafar,** 2022-2023-o‘quv yilida esa **248 nafar** pedagoglar biriktirildi.<br>Inklyuziv ta’lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish va ko‘lamini kengaytirish maqsadida maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 29-avgustdagi **274-sonli buyrug‘i** bilan **2023/2024-o‘quv yilida** inklyuziv ta’lim joriy etilishi tavsiya etilgan **390 ta** maktablarning qo‘shimcha ro‘yxati tasdiqlandi.<br>Yangi o‘quv yilining **15-sentabr** holatiga kelib **208 ta** tuman (shahar) larning **417 ta** maktablarida **inklyuziv sinflar** tashkil etilib, unga ayni paytda **734 nafar** o‘quvchilar qamrab olingan.<br>**3. Bajarildi.**<br>Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining sog‘lomlashtirilgan o‘quvchilarini inklyuziv ta’limga **yo‘naltirish** maqsadida Toshkent shahridagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 101, 102, 106-sonli, Jizzax viloyatidagi 1, 2-sonli, Samarqand viloyatidagi 61-sonli, Buxoro viloyatidagi 123-sonli va Navoiy viloyatidagi 25-sonli maktab-internatlarning **2034 nafar** o‘quvchilari Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy tibbiyot markazining malakali shifokorlari tomonidan |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.<br>2022-2023 o‘quv yilida eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida tahsil olgan 2800 nafar 1-sinf bolalarning barchasi 2022 yil yakuniga qadar zamonaviy eshitish moslamalari bilan ta’minlangan.<br>2023/2024 o‘quv yilida 1-sinfga chiqishi kutilayotgan va eshitishi apparatiga ehtiyoji bo‘lgan 530 nafar bolalarning prognoz ma’lumoti shakllantirilib, vazirlikning 2023-yil 12-apreldagi yildagi 06-06/2-652-son xati bilan eshitish apparatlarini taqdim qilish uchun vakolatli bo‘lgan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga taqdim etildi. |
| **10 (161)** | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlash maqsadida ularning kasb nufuzini oshirish hamda maqomini yuksaltirish. | **1.** Buyuk Britaniyaning “**Cambridge” tashkiloti** bilan hamkorlikda **“PDQ (Professional Development Qualification)” dasturi**ni Agentlik tizimidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazida joriy etish.<br>**2.** Agentlik tizimidagi ta’lim muassasalarining **“PDQ” dasturi** asosida kasbiy malakasini oshirgan rahbar va pedagog xodimlarining **“Ilg‘or o‘qituvchi”**, **“Ustoz** | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Prezident ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova** | **Bajarilmoqda.**<br>Prezident maktablarida faoliyat olib borayotgan ekspert o‘qituvchilar va bir guruh maktab direktorlari, Buyuk Britaniyaning “Cambridge Assessment” tashkiloti bilan hamkorlikda ikki yo‘nalish- o‘qituvchilar va rahbar xodimlar uchun kursning kontenti ishlab chiqildi.<br>The chancellor, masters, and scholars of the university of Cambridge va Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi hamkorligida 2022-yil 10-martdagi PDQ 22-sonli shartnoma hamda dastur asosida<br>Buyuk Britaniyadagi Cambridge |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **o‘qituvchi”** va **“Professional o‘qituvchi”** darajalarini berish orqali rag‘batlantirish. | | | | | Assessment tashkiloti bilan hamkorlikda 12 nafar rahbar xodim “Education leadership” dasturi asosida, 18 nafar o‘qituvchi “Teacher learning” dasturi asosida o‘qitildi.<br>Ishtirokchilar tomonidan kurs yakuni bo‘yicha portfoliolari Cambridge Assessment portalining PDQ Connect sahifasiga joylashtirildi.<br>Shartnoma asosida Agentlik tizimida 30 nafar rahbar xodim va o‘qituvchilar PDQ dasturi bo‘yicha malaka sertifikatiga ega bo‘lishdi. |
| **11 (163)** | Fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quv yuklamasini maqbullashtirish. | Quyidagi masalalar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish:<br>**boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining** pedagog stavkasini **16 soat etib belgilash**;<br>yuqori sinf o‘quvchilarining fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish;<br>umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga **haq to‘lash sharoitlarini** yaxshilash. | Axborot xati | 2023-yil may | – | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova**, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarildi.**<br>Fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quv yuklamasini maqbullashtirish bo‘yicha hukumatga Axborot xati tayyorlanib, vazirlikning **2023-yil 17-maydagi 02-02/1-677-sonli xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.**<br>Axborot xati Germaniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar maktab ta’limini chuqur tahlil qilish asosida ishlab chiqildi.<br>Unga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik stavkasini 16 soat etib belgilash;<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo‘yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | yo‘riqnoma qayta ishlab chiqish; direktorlar va o‘rinbosarlarining zamonaviy boshqaruv va menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni baholash va buning natijasida zamonaviy “Direktorlar maktabi”ni tashkil etish; shuningdek, **umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritilgan.** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari-ning haftalik yuklamasi 18 soatdan 16 soatga, yuqori sinf o‘qituvchilariniki 20 soatdan 18 soatga tushiriladi. Bu orqali, to‘liq stavkada ishlamayotgan jami 150 ming nafar muallimning oyligi o‘rtacha 30 foizga oshiriladi. |
| **45-maqsad: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash.** | | | | | | | |
| **12 (164)** | Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida umumta’lim maktablarida sog‘lom ovqatlanish tizimini amalga oshirish. | **1.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati har bitta shahar, tumanlardagi umumta’lim maktablari **1-4 sinf o‘quvchilariga oziq-ovqat yetkazib berilishi**, sifati va ta’minlanishi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatish. **2.** Monitoring natijalari asosida **muammolarni hal etish** tizimini yaratish. | Amaliy chora-tadbir | 2023-yil davomida | – | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova**, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | **Bajarilmoqda.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi umumiy o‘rta ta‘limning jami 289 219 nafar 1-4-sinf o‘quvchilarini ovqatlantirish belgilangan. 2023/2024 o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ta’lim muassasalarida 147 387 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari keytering tashkilotlari tomonidan bepul oziq-ovqat bilan ta’minlanishi belgilandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud 718 ta umumta’lim maktablari hududlar kesimida 103 ta lotlar asosida |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | 2023-yil 28-avgust kuni e-tender.uzex.uz veb saytga joylashtirildi.<br>Xorazm viloyatida 2023/2024-o‘quv yilida viloyatdagi 525 ta maktablar geografik joylashuviga qarab 46 ta lotga ajratilib chiqildi va ushbu lotlarda jami viloyatdagi 141 832 nafar o‘quvchini tashkil qildi. Joriy yilning 28-avgust kuni xarid komissiyasi raisi tomonidan lotlar va bayonnomalar tasdiqlandi. Hozirgi kunda xarid komissiyasi tomonidan tanlov (tender) jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. G‘olib tadbirkorlar bilan 78 kunlik ya’ni, sentyabr, oktyabr, noyabr, dekabr oylari uchun shartnomalar tuzilishi, shuningdek, bu uchun 68 368 697 280 so‘m sarflanishi rejalashtirildi.<br>Hozirda g‘olib deb topilgan 12 ta tadbirkor tomonidan 1-4-sinflarida ta’lim olayotgan 141 832 nafar o‘quvchiga keytering xizmatlari ko‘rsatib kelinmoqda.<br>Ushbu ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini doimiy nazorat qilish bo‘yicha ma’sul xodimlar biriktirildi. |
| **13 (165)** | Respublikaning **barcha umumta’lim maktablarida sog‘lom ovqatlanish tizimini** amalga oshirish. | **1. Respublikaning barcha maktablarida 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab** birinchi-to‘rtinchi sinf o‘quvchilarini **bepul ovqat bilan ta’minlashni tashkil etish.**<br>Bunda, ovqat turlari o‘quvchilarning yoshi va | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2023-yil may | Davlat byudjeti mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisod va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev,** viloyatlar va Toshkent | **Bajarildi.**<br>Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinflarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Respublika davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | sog‘lig‘i holatiga ko‘ra me’yorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berilishi ta’minlash.<br>**2.** Monitoring natijalari asosida **muammolarni hal etish** tizimini yaratish. | | | | shahar hokimliklari | sinflarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Adliya vazirligi xulosasi asosida **vazirlikning 2023-yil 25-apreldagi 01-05/4-204-sonli xati orqali Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.**<br>Loyiha bilan 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab respublikadagi barcha davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf (1-4-sinflar) o‘quvchilarini bepul ovqatlantirish tizimini joriy etilishi;<br>Vazirlar Mahkamasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-avgustdagi 472-son qaroriga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ovqat bilan ta’minlashni nazarda tutuvchi tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi belgilanmoqda.<br>2023/2024-o‘quv yilida (169 o‘quv kunlari) 2 642 836 nafar o‘quvchilarni ovqatlantirish uchun Davlat byudjetidan jami 2 769,0 mln so‘m shundan: sentyabr-dekabr 1 278,0 mln.so‘m, yanvar- |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | may 1 491,0 mln.so‘m (bir bola uchun 5 170 ming so‘m ustama xaqqi bilan 6200 ming.so‘m) talab etiladi. |
| **52-maqsad: Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish.** | | | | | | | |
| **14 (175)** | 2023-yilda **4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan savodxon-ligini** baholovchi **TIMSS 2023 xalqaro baholash dasturida** O‘zbekiston ishtirokini ta’minlash. | **1.** Xalqaro dastur haqida targ‘ibot-tashviqot, seminar va treninglar tashkil etish, maktab direktorlari va o‘qituvchilarning salohiyatini rivojlantirish.<br>**2.** Xalqaro tadqiqotda ishtirok etish bo‘yicha a’zolik badal to‘lovlarini amalga oshirish.<br>**3.** Xalqaro tashkilotlar tomonidan tanlab olingan **166 ta** maktabda moddiy-texnika bazani mustahkamlash, Internet tarmog‘iga ulanish sifatini oshirish hamda tadqiqotlarni tashkil etish.<br>**4.** 2024-yilda xalqaro darajada e’lon qilinadigan tadqiqotlar natijalari asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, maktab ta’limi, o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikalarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Jahon bankining “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtir-ish” loyihasi mablag‘lari hisobidan **169,6 ming dollar** | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev,** Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi **L.Kudratov** | **Bajarilmoqda.**<br>**1.** O‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholovchi TIMSS dasturi Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) bilan tuzilgan shartnomaga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlar milliy markazi tomonidan tashkil etiladi.<br>Tadqiqotning sinov jarayonlarini Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) talablari asosida tashkil etish masalalari bo‘yicha Chexiya Respublikasida 2023-yil 26-fevral-3-mart kunlari tashkil etilgan TIMSS 2023 Milliy koordinatorlarining 6-uchrashuvi va xalqaro treningda Milliy markazning 5 nafar mutaxassislari ishtirok etib, zaruriy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ta’minlandi.<br>Tadqiqot mazmuni va tashkil etish masalalariga bag‘ishlab, Milliy markaz tomonidan jami 5 ta treninglar tashkil etildi.<br>Mazkur treninglarda 42 nafar test administratorlari, 166 nafar maktab koordinatorlari maqsadli tayyorlandi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | **2.** Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan 2023-yil 17-mart kuni TIMSS-2023 tadqiqoti uchun to‘lovlarni amalga oshirish haqida hisob fakturalari olindi (Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazining 06.04.2023-yildagi 01-29-son xati).<br>Mazkur hisob fakturalarga muvofiq Jahon bankining “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” loyihasi mablag‘lari hisobidan jami 84,8 ming AQSH dollari hamda 84,8 ming EURO miqdorida to‘lovlar amalga oshirildi.<br>**3.** IEA tomonidan reprezentativlik tamoyili asosida barcha hududlarni qamrab oluvchi 166 ta maktablar tadqiqotda ishtirok etish uchun namuna sifatida tanlab berilgan maktablarda 2023-yil aprel-may oylarida sinov jarayonlari tashkil etildi.<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 10-apreldagi 01-01/14-172-sonli xati O‘ztelekom AKga yuborilib, tadqiqotda qatnashadigan 166 ta maktablarda sinov davrida 2023-yil 10-apreldan 25-mayga qadar 300Mbit/s internet tezligi bilan ta’minlab berildi.<br>**4.** Tadqiqotda respublikaning barcha hududlaridan tanlab olingan 166 ta maktablardan jami 8800 nafar o‘quvchilar (shundan, 4450 nafar 4-sinf va 4350 nafar 8-sinf) test va so‘rovnomada ishtiroki |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | ta'minlandi.<br>Shuningdek, mazkur maktablarning 166 nafar direktorlari hamda 1035 nafar matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilari so'rovnomada ishtirok etdi.<br>Tadqiqot natijalari Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (Amsterdam, Gollandiya) tomonidan tahlil qilinib, 2024-yil yanvar oyida e'lon qilinishi rejalashtirilgan.<br>Tadqiqot natijalari olinganidan so'ng, kelgusidagi vazifalar bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. |
| 15 (176) | **O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA 2025** tadqiqot dasturida **O'zbekistonning ishtirokini** ta'minlash. | **1.** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan shartnomaga muvofiq a'zolik badallarini to'lash.<br>**2.** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlikda tadqiqotning 2024-yildagi tajriba-sinovi hamda 2025-yildagi asosiy sinovlarini tashkil qilish hamda tadqiqotda maktablarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.<br>**3.** Chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil noyabr | Amaldagi qonunchilikka muvofiq ajratiladigan mablag'lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi **Sh.Kudbiyev** | **Bajarilmoqda.**<br>**1.** PISA 2025 tadqiqot dasturida ishtirok etish bilan bog'liq a'zolik badallarini to'lash ikki tomonlama shartnoma asosida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida imzolanishi rejalashtirilgan PISA 2025 tadqiqot dasturida ishtirok etish tôg'risida kelishuv loyihasi ishlab chiqilib, tegishli davlat boshqaruvi organlarining xulosalari, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligining ijobiy mazmundagi xulosasi olindi (24.07.2023y. 07/28408 son xat).<br>Tashqi ishlar vazirligining taklifiga binoan kelishuv hujjatlari to'plami Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan kelishish uchun o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahlamasiga kiritishga tayyorlandi. |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Vazirlar Mahkamasidan ijobiy xulosa olindi (22.08.2023-yil, 12/1-410-son) va shartnoma imzolash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritildi.<br>Shartnoma vazirlik tomonidan imzolanib Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga imzolash uchun Tashqi ishlar vazirligi orqali yuborildi. (03-01/16-3713-sonli xat, 05.09.2023-yil)<br>**2.** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazi direktori A.Ismailov boshchiligidagi guruh 2023-yil 12-19-mart kunlari Portugaliya davlatida chet el xizmat safari tashkil etilib, OECD tomonidan o‘tkazilgan “PISA 2025 tadqiqoti Milliy loyiha koordinatorlarining birinchi uchrashuvi”da ishtiroki ta’minlandi.<br>PISA 2025 xalqaro tadqiqot dasturi doirasida bosh pudratchi hisoblangan Avstraliya ta’lim tadqiqotlari kengashi (ACER) bilan hamkorlikda tadqiqot doirasida 2026-yilgacha amalga oshiriliadigan choratadbirlar rejasi ishlab chiqildi.<br>Chora-tadbirlarga muvofiq ishlar bosqichma-bosqish amalga oshirilmoqda.<br>**3.** O‘zbekiston ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan va ta’limning xalqaro tasniflagichi bo‘yicha ISCED 2 va ISCED 3 darajalariga mos bo‘lgan **ta’lim dasturlari haqida ma’lumot (Study** |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | **program spreadsheet) ishlab chiqildi** va xalqaro ACER tashkiloti tomonidan ma'qullandi.<br>PISA 2025 tadqiqotiga doir test va so'rovnoma materiallari o'zbek, rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinishi belgilangan bo'lib, tarjimon va taxrirchilar uchun treninglar 2023-yil 6-iyundan Ta'lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazida tashkil etildi, unda Capstan Xalqaro lingvistika markazi (Bryussel, Belgiya) mutaxassislari trenerlik qildi.<br>Treningda maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan test va so'rovnoma materiallari 2023-yil iyun oyidan dekabr oyiga qadar tarjima qilish va sifat nuqtai nazaridan xalqaro verifikatsiyadan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlar berildi. |
| **82-maqsad: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish** | | | | | | | |
| **16 (254)** | Maktablarda ta'lim olayotgan yoshlarning buzg'unchi oqimlar ta'siriga tushishining oldini olish, ularga **O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi masalalarini tushuntirish hamda buyuk ajdodlarimiz merosi** bilan tanishtirish. | **1.** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida targ'ibot guruhlarini shakllantirish.<br>**2.** Targ'ibot guruhlari maqsadli ish rejalarini (1-4, 5-8, 9-11-sinflar kesimida), tarbiyaviy ishlar rejasi va tezislarini tayyorlash.<br>**3.** Tadbirlarni tizimli ravishda ta'sirchan shakllarda amalga oshirish hamda OAV orqali davriy yoritib borish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil oktabr | Hisob-kitoblarga ko'ra | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova**, Yozuvchilar uyushmasi **S.Saidov**, MTRK **A.Xadjayev**, Din ishlari bo'yicha qo'mita **S.Toshboyev**, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi **M.Hojimatov** | **Bajarilmoqda.**<br>Maktablarda ta'lim olayotgan yoshlarning buzg'unchi oqimlar ta'siriga tushishining oldini olish, ularga O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi masalalarini tushuntirish hamda buyuk ajdodlarimiz merosi bilan tanishtirishga qaratilgan 14 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.<br>2023-2024 o'quv yilidan boshlab barcha ta'lim muassasalarida chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli ishlar |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | tashkil etiladi. |
| **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga hamijrochi sifatida yuklatilgan topshiriqlar** | | | | | | | |
| **74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash** | | | | | | | |
| **17 (229)** | Yurtimizda **millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va xalqlararo do'stlikni targ'ib etuvchi** madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish. | Yurtimizda **millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va xalqlararo do'stlikni targ'ib etuvchi** madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda amaliy ishlarni tashkil etish. | Vazirlar Mahkamasi farmoyishi loyihasi | 2023-yil oktabr | Hisob-kitoblarga ko'ra<br><br>Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari | Madaniyat va turizm vazirligi **O.Nazarbekov,** Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi **R.Kurbanov,** Din ishlari bo'yicha qo'mitasi **S.Toshboyev,** Tashqi ishlar vazirligi **B.Saidov,** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi **X.Umarova,** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I.Abduraxmonov,** "Vatandoshlar" jamoat fondi **O.Sattarov** | **Bajarilmoqda.**<br>Vazirlar Mahkamasining "Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va xalqlararo do'stlikni targ'ib etuvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish" bo'yicha farmoyishi tasdiqlangandan so'ng tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda amaliy ishlarni tashkil etish rejalashtirilgan.<br>Respublikamizda 30 iyul "Xalqlar do'stligi kuni"ni keng nishonlash maqsadida ishlab chiqilayotgan tadbirlar dasturiga kiritish uchun madaniyat va turizm vazirligiga tegishli takliflar yuborildi. |
| **87-maqsad: "Vatandoshlar" jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish** | | | | | | | |
| **18 (268)** | Xorijda yashayotgan **vatandoshlar orasida o'zbek tilini** keng targ'ib qilish. | **O'zbek tili fani bo'yicha** xorijdagi vatandoshlarga mo'ljallangan **onlayn mashg'ulotlar**ni tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Vatandoshlar jamoat fondi mablag'lari | Vatandoshlar" jamoat fondi **O.Sattarov,** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi | **Bajarilmoqda.**<br>O'zbek tili fani bo'yicha xorijdagi vatandoshlarga mo'ljallangan onlayn mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha dasturlar va reja grafik hamda O'zbek tilini xorijiy til |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | **X.Umarova**, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **I.Abduraxmanov** | sifatida o‘rganuvchilar uchun umumiy qo‘llanma ishlab chiqilmoqda.<br>Shuningdek, o‘zbek tili bo‘yicha xorijdagi vatandoshlarga mo‘ljallangan onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha “Vatandoshlar” jamoat fondi bilan Vazirlik huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.<br>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Boshqa davlatlarda istiqomat qilayotgan vatan-doshlarimizni jipslash-tirish va ushbu mamlakatlarda o‘zbek xalqining qadimiy-ma’naviy merosini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv Dasturi” tayyorlanib vazirlik huzuridagi Respublika ta’lim markazi tomonidan tasdiqlangan. |